

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

— 2-2023 —

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.Xakimov, B.A.Nabiyev

Hozirgi zamon ekologik masalalari va Markaziy Osiyoda transchegaraviy suvdan foydalanish muammosi 217

X.Raxmatova

Abu Said Abulxayrning "Risolai havroiyya" asari Xoja Ahror Valiy falsafiy talqinida 225

B.Iminov

Turkiston ziroatchilik va davlat mulki boshqarmasi "Dehqon" jurnalining tarixi 229

O'.Ahmedova

Davlat va jamiyat boshqaruviga ma'naviy tarbiyaning ta'siri 233

B.Xasanov

Terrorizm va ekstremizmning jamiyatga tahdidi 236

B.Yalgashev

Samarqand vohasida ziyorat turizmini rivojlantirish masalalari 240

J.Yusubov

Abu Nasr Forobiy hayoti va ijodining o'ziga xos jihatlari 245

D.Sagdullaeva

Jamiyat modernizatsiyalashuvining ijtimoiy-falsafiy tahlili 248

A.Tojaliyev

Oliy ta'lim-yangi O'zbekistonni barpo etishning muhim sharti 254

E.Zoyirov

Ya'qubi Charxiy ijtimoiy-siyosiy qarashlari 258

U.Azimov

Yoshlarning demokratik islohotlarga aksiologik munosabatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tahlili 264

A.Abdumalikov

Jamiyatda uzliksiz ta'lim tizimining shaxs ekologik madaniyati yuksalishidagi roli 267

I.Rizayev

Sinergetika: ijtimoiy tizimni tadqiq qilishdagi muammo va imkoniyatlar 272

R.Mardonov

Sharq va g'arb ta'lim falsafalarining o'zaro ta'siriga asoslangan madaniyatlararo muloqot 279

F.Yuldashev

Abu Nasr Forobiy falsafasida aqliy bilish panteizmi 283

F.Usmonov

Zamonaviy kompyuter etikasi muammolari 282

H.Muhamadiyev

Virtuallik yangi falsafiy kategoriya sifatida 293

SIYOSAT

D.Sharipov

Tinchlikni ta'minlashning innovatsion omillari 298

M.Habibullaev

Korrupsiyadan xoli jamiyat barpo etishda ma'naviy – ma'rifiy islohotlarning dolzarbligi 302

M.G'anyeva

Xotin-qizlarda tadbirkorlik tafakkuri va uning jamiyat ijtimoiy taraqqiyotidagi o'rni 305

O.Boboqulov

Kongoning mustaqillikka erishish jarayonida O'zbekiston SSR bilan diplomatik munosabatlari 309

J.Sultonov

Markaziy Osiyo chegara muammolari yechimini konstruktivizm nazariyasi yordamida tahlil qilish 311

TINCHLIKNI TA'MINLASHNING INNOVATSION OMILLARI
ИННОВАЦИОННЫЕ ФАКТОРЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ МИРА
INNOVATIVE FACTORS OF ENSURING PEACE

Sharipov Dilshod Baxshilloevich¹

¹Sharipov Dilshod Baxshilloevich

– Buxoro davlat pedagogika instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada taniqli fransuz olimi, esseyisti, iqtisodchisi, professori, Fransiya Respublikasi Prezidenti F.Mitterandning sobiq maslahatchisi, YeTTB sobiq raisi Jak Attali geoiqtisodiy konsepsiyasining empirik tahlili keltirilgan. Bunda asosiy e'tibor tinchlikni ta'minlash, taraqqiyot, tarixning innovasion yondashuvlari va umuminsoniy tartibotni yuzaga keltiruvchi omillar tahliliga e'tibor qaratilgan. Ijtimoiy tadqiqotlar uchun yaxshi tavsiyalar mavjud.

Аннотация

В данной статье представлен эмпирический анализ концепции Жака Аттали, известного французского ученого, эссеиста, экономиста, профессора, бывшего советника президента Французской Республики Ф. Миттерана, бывшего председателя ЕБРР. Основное внимание уделяется анализу факторов, обеспечивающих мир, развитие, инновационные подходы к истории и универсального вселенскому порядку. Также в статье предоставлены хорошие рекомендации по общественности.

Abstract

This article empirically analyzes the geoeconomic concept of the famous French scientist, essayist, economist, professor, former adviser to the President of the French Republic F. Mitterand, former chairman of the EBRD. The main attention is paid to the analysis of the factors that ensure peace, development, innovative approaches to history and the universal order. The article also provides good recommendations on social studies.

Kalit so'zlar: tinchlik, innovasiya, dunyoviy iqtisodiy tartibot, kelajak, hokimiyat

Ключевые слова: мир, инновации, мирохозяйственный порядок, будущее, власть.

Key words: peace, innovation, world economic order, future, government

KIRISH

Jak Attali texnika tarixini tadqiq etib va texnikaning insoniyat rivojidadagi o'rnini o'rganish maqsadida 8 ta asosiy texnologik innovatsiyani ta'kidlaydi va ushbu innovatsiyalarning dunyo iqtisodiy tartibotini asoslashga xizmat qilganini ko'rsatadi:

1. Bosmaxona dastgohi;
2. Hisoblash metodlari;
3. O'ta jiddiy boshqariladigan mexanizmlar;
4. Parvoz qiluvchi kemalar;
5. Karavella;
6. Bug' mashinasi;
7. Ichidan yonuvchi motor;
8. Elektrik motor [1.131].

Jak Attali “Sovuq urush” davridagi dunyoviy evolyutsiyani ikkita kriteriya bilan asoslaydi: 1. Iqtisodiy; 2. Harbiy jihat.

Iqtisodiy hokimiyatni Yaponiya bir tomon, Yevropa Hamjamiyati bir tomon; prinsipial harbiy hokimiyatni esa AQSh bir tomon, Sobiq Ittifoq bir tomon, tarzidagi raqobatda ko'radi.

“Tinch okeani sferasi deganda, Men tinch okeani qirg'oqlarida shakllangan davlatlar guruhini nazarda tutaman, deylik, Okeaniya – tez sur'atlarda rivojlanayotgan Sharqiy Osiyo (Yaponiya, Janubiy Koreya, Malayziya, Indoneziya, Singapur, Tayvan, Fillipin, Gong – Kong) va Shimoliy va Janubiy Amerikaning barcha davlatlari. Men Xitoy va Vyetnamni kiritmadim. Bu juda katta mintaqa iqtisodiy to'fon yerlariga / markaziga aylanmoqda...hokimiyat tinch okeanining bir qirg'og'idan ikkinchisiga ko'chmoqda” [1.131].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Ushbu tezisning ahamiyatli va xolis tanqidiy tomonlarini ko'rib chiqish lozim. Birinchidan, ushbu xulosa shakllanayotgan dunyoviy tartibotning har qanday jihatini to'liq aks ettirmaydi.

SIYOSAT

Nimaga deganda Yaponiya o'z orollik xususiyatiga ko'ra rivojlanib kelmoqda va dunyoviy iqtisodiy tartibotda markaz bo'lishga intilayotgan emas. Agar shunday bo'lganda edi, bu bevosita siyosatni, demakki, siyosiy ta'sirni yuzaga keltirardi. Boshqa tomondan esa dunyo iqtisodiy tartiboti markaziga aylanishni istagan har qaysi jo'g'rofiy hudud bevosita harbiy ta'sir va aralashuv, harbiy potensialni ko'z – ko'z qilgan va o'zga jo'g'rofiy hudud va maydonga o'rnatgan bo'lardi, yoki qaysidir hokimiyat asosi bo'lishi mumkin bo'lgan richagni ishga solgan bo'lardi.

Ikkinchidan esa, siyosiy vaqt masalasini inobatga olish kerak. Demoqchimizki, Yaponiya iqtisodiy hukmfarmonlikni emas, har qanday o'zgarishlarda, xususan, siyosiy – diplomatik, harbiy va iqtisodiy, informatsion va texnikaviy, demografik – insoniy o'zgarishlarda o'z davlat qurilishi an'analari sodiq qoldi. Masalan, Sobiq Ittifoq quladi. Berlin devori quladi.

AQSh geostrateglari esa AQShning yagona dunyoviy superderjava ekanligidan bong urdi. Ammo yapon milliy qudrati dunyoviy o'zgarishlarda o'z imperatori timsolida bor – yo'g'i kulib turdi, xolos. Yaponiya tabiati neytral, ammo funksional ish nuqtayi nazaridan yetakchidir. Bu esa hali klerikal siyosat degani emas, yoki dunyo tartibotidagi qandaydir, deylik, iqtisodiy, yoki siyosiy hokimiyat emas. Siyosiy vaqt masalasi siyosat mohiyatini belgilaydi, xususan, iqtisod va iqtisodiy hokimiyatning ham. Masalan, Jak Attali Xitoy va Vyetnamni tinch okeani qirg'oqlari davlatlar guruhiga kiritmagan.

Xitoyning hozirgi XXI asrdagi dunyo va Sharqiy Osiyodagi o'rni hamda Xitoy siyosiy ta'siri va iqtisodiyotining ahamiyati beqiyosdir. Qachonlardir N.Bonapart Xitoyni uxlab yotgan ajdarga qiyoslaydi va uni qo'zg'atmaslik ma'qulligini ta'kidlagan edi. Hozirgi XXI asrda esa Xitoy o'z harbiy va iqtisodiy dogmatikasi jihatidan xohlagan rivojlangan davlatdan o'zishi mumkin, aslida Xitoyni shu narsa ushlab turibdi. Sababi siyosat degani har doim, deyarli har doim harbiy omillar bilan kuzatiladi. Harb ishi siyosat o'zagini belgilaydi. Bu azaldan mavjud bo'lgan, bugun kashf etilmagan qoidadir. Xitoy misolida esa harbiy mashina siyosatni ham belgilaydi, ham ushlab turadi. Bu masalada hali alohida yondoshuv lozim. J.Attalining **“hokimiyat Tinch okeanining bir qirg'og'idan ikkinchisiga ko'chmoqda”** degan xulosasi ham nisbiydir. Sababi dunyoviy tartibda hokimiyatning o'zi qayerda va kimning qo'lida ekanligini hal etish lozim – gap shakllanayotgan dunyoviy tartibot haqida bormoqda. Iqtisodiy indekslarga ko'ra ta'rif berish adashishlarga olib keladi. Xuddi shundayki, siyosiy indekslarga ko'ra ham ta'rif berish adashishlarga olib keladi. Bu yerda masala o'q ildiziga ahamiyat berish lozim. Mohiyat daraklari to'g'ri xulosalarga olib keladi.

Shunday qilib, Jak Attali dunyoviy iqtisodiy tartib bo'yicha yana bir quyidagi tezisni ilgari suradi: “dunyo iqtisodiyoti markazi bo'lishni istagan xohlagan nomzod, xususan, Yaponiya, ko'rishi lozim bo'lgan omillar, quyidagi juda ham muhim omillarni to'ldirishi lozim: masalan, Yaponiya dunyo bo'ylab xalqlar qabul qilishi lozim bo'lgan ijtimoiy qadriyatlarni yarata oladimi?! Periferiya va davlatning uzoq yerida Yaponiya harbiy protektor bo'lishni istaydimi va shunday qabul qilinadimi, markaz roli to'ldirilishi lozim ?!”

Jak Attalining ushbu xulosasi esa bevosita hukmfarmonlik g'oyalaridan kelib chiqqan. Ko'pgina zamonaviy konsepsiyalarda ushbu g'oya yagona g'oya sifatida asoslashga urinilgan, masalan, hali tegishli maqolada tahlil qilingan S.P.Xantington tamadduniy konsepsiyadagi madaniyat g'oyasi, F.Fukuyama konsepsiyasidagi siyosiy tarix va liberalizm g'oyasi, Zb.Bjezinski konsepsiyasida xavfsizlik g'oyasi va h.k.z. Jak Attalida esa iqtisod g'oyasi belgilangan. Bunday yondashuv, masalan, Jak Attali g'oyasi kabi ko'proq kimningdir hukm o'tkazish va hukmfarmonlik qilish g'oyasiga asoslanadi. Alohida uqtirish kerakki, barcha (siyosiy birliklar) uchun bir xil bo'lgan ijtimoiy qadriyatlar mavjud emas. Ayni paytda xoh siyosiy markaz bo'lsin, xoh iqtisodiy markaz bo'lsin, xoh u ilmiy markaz bo'lsin, yagona ijtimoiy, qolaversa, siyosiy qadriyatlarni yarata olmaydi, o'rnatma ham olmaydi.

Siyosatda qudrat hamma narsani hal qiladi. Iqtisodda pul hamma narsani hal qiladi. Axborot va xavfsizlikda ma'lumot hamma narsani hal qiladi. Ilmda ilmning o'zi hamma narsani hal qiladi. Xalqaro munosabatlarda har doimgidek dilemma hamma narsani hal qiladi. Ammo yetakchi davlat degani boshqa millatlar uchun, xoh u periferiya bo'lsin, xoh u davlatning uzoq yeridagi makon bo'lsin, yagona ijtimoiy qadriyat va harbiy kafillik yoki harbiy himoyachi – harbiy protektor bo'lishi kerak, degani emas. Liderlikning yagona qonuni tartib o'rnatishdir, balki, bu hukmdir, balki bu konsensusdir, ammo hech qachon yagona ijtimoiy qadriyat va harbiy himoya degani emas. Agar shunday bo'lganida edi, AQSh Vyetnamga qo'shin kiritmasdi va olib chiqib ketmasdi; Sobiq Ittifoq Afg'onistonga qo'shin kiritmasdi va olib chiqib ketmasdi. Demak, har qanday liderlik, avvalo, har qaysi sohada tartib o'rnatishdir, yangi tartib o'rnatishdir va bunda tinchlik, osoyishtalik, ravnaq va

munosabatlar konsensusi va chindan ham tartibning mavjud bo'lishidir. Bu esa protektor qiladigan ish emas.

Jak Attali AQSh haqida yozar ekan, bir tomondan, AQSh iqtisodiyoti inqirozi haqida gapirsa, bir tomondan AQSh dollarining dunyoviy ahamiyatga egaligini ta'kidlaydi. Xususan, Amerika moliyaviy, texnikaviy va demografik resurslar bo'yicha ahamiyatli ekanligini yozadi. "Shunga qaramay, Amerika Yevropaning qizidir, bevosita Atlantika okeani va O'rta yer dengizi bo'ylab o'zgarishi mumkin, ammo Tinch okeani bo'ylab emas" [1.4]. Jak Attalining faqatgina bitta xulosasi siyosiy bashorat bo'yicha o'zini oqladi: u AQSh davlat qudratini sanoat asoslashini va AQShga taalluqli qulash har yerda kuzatilishini ta'kidlagan edi [2.499].

Buni hozirgi kundagi dunyo siyosatidagi o'zgarishlar va AQShdan boshlangan ipoteka banklarining inqirozidan ham bilsa bo'ladi. AQSh sanoatining 1991 yilga qadar oxirgi 15 yilida Dunyo bozoridagi ulushi 6% kamaygani va AQShda yaratilgan avtomobillar, televizorlar va uy jihozlarini eksport qilmayotganligi ham uning dunyo iqtisodiyoti markazi bo'lishga salbiy ta'sir etishini ta'kidlagan. Jak Attali faqatgina pozitiv savdo balansi ikkita sektorga ta'luqli ekanligi ta'kidlagan:

1. **Aviatsion – kosmik;**
2. **Kompyuterlar.**

Jak Attali AQSh uchun Markaziy va Lotin Amerikasidagi "kommersial xohish"ni qozonishi kerakligini uqtiradi va buning uchun AQSh "ispan tilli millat bo'lishi", ya'ni ispan tilida so'zlashuvchi bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Barcha shunday muammolarni qiyosiy tahlil qilar ekan, J.Attali xulosani sanoatga bog'laydi. Jak Attali yapon biznesi o'zini modernizatsiya qilish uchun Amerika biznesidan ko'ra, ikki barobar ko'p sarflaydi, deb ta'kidlaydi. Bunday vaziyat esa boshqa hududlarga u yoki bu tarzda ta'sir etdi. Demak, liderlikdagi o'zgarishlar o'zgalarda ham aks ettiriladi va siyosat parametrlari mavjud vaziyatga qarab belgilanadi. Shunday qilib, dunyo siyosatidagi o'zgarishlar o'z holicha ro'y bermaydi, aksincha, biror bir samaraga erishish mumkin, xolos.

Jak Attali Yevropa tartiboti haqida ta'kidlar ekan, bunda **birlashgan Germaniyani** Yevropa kontinentining ikki qismini birlashtiruvchi davlat sifatida ko'radi [1.13].

Yaponlar tabiati haqida yozar ekan, J.Attali quyidagilarni ta'kidlaydi: "Yapon jamiyati konsensus bo'ylab o'zgarishlarni boshqarishni o'rgandi. "O'zgarish" so'zi yapon tilida – **nimavashi**, deb yana "transplanting" – "boshqa joyga o'tkazmoq" ma'nosini anglatadi" [1.9].

"Sababi o'zgarishlar sekin kirib kelishi mumkin, qachon u kelsa, o'zagi bilan o'zgartirib yuboradi". Ushbu madaniy va jo'g'rofiy omillar o'zga millatlardan ko'ra, yaponlarga shunday turtki berdiki, ularni kelajakka garovlab qo'ydi. Ular sarflashdan ko'ra, saqlaydigan va importdan ko'ra, eksport qiladigan xalqdir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

J.Attali "har qanday bayonotlardan tashqari, Yaponiya Tinch okeani sferasi maydonining hukmronligiga aylanmoqda, bu sferada AQShning noqulayligi ortmoqda", deb ta'kidlaydi. "Qadam ba qadam Yaponiya (o'zini) o'rab turgan bozorlar va sanoat kommunikasiya tarmoqlarini nazorat qilmoqda. Tokio sanoat investitsiyalari Osiyo tinch okeani qirg'oqlarida har yili (o'ndan) uch qismga ko'paymoqda. Yaponiya hozir kommersial tarmoqlarning (o'ndan) uch qismini va bugungi keng iste'mol mahsulotlarini taqsimlanishining deyarli yarmini nazorat qilmoqda. To'rt "ajdar" – Gong – Kong, Singapur, Tayvan va Janubiy Koreya o'zlarini Yevropaning eng rivojlangan davlatlaridan ham yuqoriga ko'tarishdi" [1.14-15]. "Shunga qaramay, ularning aholisi o'smoqda – va iste'molchilar soniga ko'ra muvofiq o'sish – o'zgacha tez sur'atlarda o'smoqda. Birgalikda Tinch okeani qirg'oqlaridagi millatlar hisoblanganda, dunyo YaIM 1/6 ishlab chiqarmoqda". J.Attali yana quyidagilarni ta'kidlaydi: "Asr o'zgarishi bilan ularning IYaM Yel va AQSh tenglashadi. Ularning o'zaro savdosi dunyo savdosining 1/10 qismini tashkil etadi va Tinch okeani uzra savdodan ancha oshib ketadi. Bunday savdoning o'sishi shunchalar tezki, yaqin o'n yil ichida dunyo savdosining yarmi Tinch okeani qirg'oqlarida sodir bo'ladi. Allaqachon dunyoning oltita porti Tinch okeanining Osiyo qismini kesib o'tadi".

Ayni paytda Jak Attali "hukmronlik uchun kurash"da Yaponiyaga ko'proq ahamiyat bergan. Ta'kidlangan ma'lumotlardan tashqari, bank sohasiga alohida e'tibor beradi: "Tokio dunyoviy finanslarning asosiy markaziga aylanib ulgurdi: bu dunyoviy foyda va moliyaviy instrumentlar joylashgan yerdir. Dunyoning kamida o'nta katta banklaridan sakkiztasi shu yerdadir" [1.20].

Bundan tashqari, J.Attali tinch okeani qo'shnilari o'rtasidagi g'oyalar, ishlar, mahsulotlar almashinuvi bir xil tezlikda xuddi shunday Yevropada, AQShda borayotganligini va Yaponiya bu

SIYOSAT

to'siqni yengib o'tishi uchun qattiq ishlashi kerak»ligini ta'kidlagan. Jak Attali qaror qabul qilish tizimi haqida quyidagi amaliy xulosani beradi: Yapon qaror qabul qilish tizimida Amerika va Yevropa biznesidan farqli ravishda sirli biznesmenlar va oliy darajadagi byurokratlar borligini ta'kidlaydi.

XULOSA

Jak Attali "kommunikatsion to'ntarish" so'z birikmasini geoiqtisod ilmda ilk bora muomalaga kiritdi. "Kommunikatsion to'ntarish ma'lumot almashinuvida allaqachon o'z o'rniga ega: telefon, faks, kabellar va kosmik (parabol antenna) televideniye, barchasiga uzatish uchun ijozat berilgan – xohlagan payt dunyoning xohlagan vaziyatda virtual tarzda yorug'lik tezligida – rasmlar, dizaynlar va tasvirlar sanoat ishlab chiqarishi va individual foydalanish uchundir. Bu yaponlarning ushbu sohada yetakchi ekanligi tasodif emas" [1.21].

Bundan tashqari, Jak Attalining fikriga ko'ra, "Yaponiya Xitoy bozorini rivojlantirish uchun qattiq harakat qilmoqda".

Barcha mavjud omillarni o'rganib, Jak Attali shunday xulosa qiladiki, na Tinch okeani sferasi, va na Yevropa shakllanayotgan Yangi dunyo tartiboti ustidan hukmfarmonlik qilishadi: "shakllanayotgan Yangi dunyo tartiboti markazi ko'pgina mintaqalar o'rtasida o'zidagi shartli funksiyalarga taqsimlanishi mumkin – Amerika madaniyat, pul va mudofaa bo'yicha, Yaponiya moliya va sanoat bo'yicha, Yevropa hayot tarzi va xizmatlar bo'yicha" [1.38].

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jak Attali. Mingyillik. Kelgusi dunyo tartibida g'oliblar va mag'lublar (Jacques Atalli. Millennium: Winners and Losers in the Coming World order). New York, 1991. 131 b.
2. English – Uzbek dictionary. Inglizcha – O'zbekcha lug'at. Ikkinchi nashri. "VECTOR - PRESS". Toshkent – 2009. 499 b.